# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI HOKIMINING QARORI

2022 - yil 17 - mart 186-10-0-Q/22 Toshkent viloyati hokimiligi

## O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 2 martdagi “O‘zbekiston Respublikasi davlat geologiya va mineral resurslar qo‘mitasi tizimidagi geologiya fanlari universiteti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-154-sonli Qarori to‘g‘risida

Geologiya sohasidagi ilmiy tadqiqotlar natijalarini amaliyotga joriy etish, o‘qitishning zamonaviy uslublaridan keng foydalanish, geologiya sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish, shuningdek, geologiya sohasida ta’lim, ilm-fan va amaliyot o‘rtasida uzviy bog‘liqlikni yetarli darajada ta’minlash, yer haqidagi fanlar, shu jumladan ularning fundamental yo‘nalishlari hamda amaliyot o‘rtasida real integratsiyalashuv jarayoni uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida qaror qilaman:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 2 martdagi PQ-154-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. Davlat geologiya va mineral resurslar qo‘mitasi (keyingi o‘rinlarda-Davlat geologiya qo‘mitasi) tizimidagi Geologiya fanlari universiteti (keyingi o‘rinlarda-Universitet) geologiya sohasida ta’lim, ilm-fan va amaliyot integratsiyasini ta’minlovchi ilmiy klaster hamda malakali kadrlar tayyorlash va ilmiy-tadqiqot ishlarini muvofiqlashtirish bo‘yicha respublikaning tayanch oliy ta’lim muassasasi etib belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Viloyat hokimligi bir oy muddatda Oqsoq-ota dala-o‘quv poligonining g‘arbiy qismidan 2,7 gektar yer maydonini Universitetga doimiy foydalanish huquqi asosida ajratsin.

4. Viloyat axborot texnologiya va kommunikatsiyalarni rivojlantirish boshqarmasi boshlig‘i X.Yuldashev bilan birgalikda ikki oy muddatda Universitet

axborot-resurs markazining Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi elektron axborot-kutubxona resursiga barcha xizmat turlaridan bepul foydalanish huquqi asosida ulanishini ta’minlasin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosari Sh.Mahmudov zimmasiga yuklansin.

**Toshkent viloyati hokimi v.b.** **Z.Mirzayev**